XALQ DEPUTATLARI G’UZOR TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 18-may VII-17-33-4-56-K/26 G’uzor tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-47-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-47-sonli qarorining tumandagi ijrosi yuzasidan G’uzor tumani suv yetkazib berish xizmati Davlat muassasasi boshlig‘i B.Shomirzayevni 2026-yil 26-martdagi 42- sonli taklif xati hamda Kengashning agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 27-apreldagi DKQ 03-04/2-26-sonli qarorini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-47-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman suv yetkazib berish xizmati Davlat muassasasi boshlig‘i B.Shomirzayevni kiritgan taklifi va Kengashni agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 27-apreldagi DKQ 03-04/2-26-sonli qarorini ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Suv bilan barqaror ta’minlangan hududlarda joylashgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning ro‘yxati 1-ilovaga, suv bilan barqaror ta’minlanmagan hududlarda joylashgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning ro‘yxati 2-ilovaga asosan ma’qullansin.

4. Suv bilan barqaror ta’minlangan hududda joylashgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar ro‘yxati 1-ilovaga, suv bilan barqaror ta’minlanmagan hududda joylashgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

5. G’uzor tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi(B.Shomirzayev), tegishli muassasalar va tashkilotlar bilan birgali

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 fevraldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-47-son qarorida berilgan vazifalarni bajarish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni belgilasin;

– 2026 yilda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni kengaytirish;

– 2026 yil 1 oktabrdan suv tejovchi texnologiyalarni o‘rnatish ishlari majburiy tartibda tasdiqlangan minimal talab va meyorlar asosida amalga oshirilishi to‘g‘risida keng targ‘ibot ishlarini olib borish;

– 2027 yildan boshlab sholi yetishtiriladigan maydonlarning suv kirish qismiga va baliqchilik xo‘jaligi tashkil etilgan yer maydonlarining suv kirish va chiqish qismiga tadbirkorlik subektlari o‘z mablag‘lari hisobidan "aqlli" suv o‘lchash va hisoblash vositalarini o‘rnatish majburiy etib belgilanganligini tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish;

– 2027 yildan boshlab, har yili suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi va subsidiyalar sug‘oriladigan yer maydonlarining suv bilan ta’minlanganlik holatidan kelib chiqib belgilanishi;

– suv bilan barqaror ta’minlanmagan hududda joylashgan sug‘oriladigan yer maydonlarida suv tejovchi texnologiyalar joriy etilganda ajratiladigan subsidiyalarga 1,25 oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilgan holda hisoblanishi;

– bajarilgan ishlar haqida Xalq deputatlari G‘uzor tumani tuman Kengashiga yozma ravishda ma’lumot berish topshirilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (Sh.Donayev) zimmasiga hamda qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (H.Qaxarov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **JUMAYEVA KUNDUZ RASULOVNA**

Xalq deputatlari G’uzor tumani
Kengashining
2026-yil 18-maydagi
VII-17-33-4-56-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Suv bilan barqaror ta’minlanmagan hududda joylashgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari ro‘yxatini shakllantirish to‘g‘risidagi MA’LUMOT

№	Hudud nomi	Tuman nomi	Jami yer maydoni (gektar)	Suv olish usuli, gektar	
				o‘z oqimi bilan	nasoslar orqali
1	Bo‘ston	G‘uzor	252,4	252,4	
2	**Oxunboboyev**	G‘uzor	1076,7	1076,7	
3	**Yangikent**	G‘uzor	1816,7	1409,3	407,4
4	**Navoiy**	G‘uzor	2435,6	2261,5	174,1
5	**A.Tursunov**	G‘uzor	1161,4	1095,1	66,3
6	**Navbaxor**	G‘uzor	636,0	636,0	
7	**Navruz**	G‘uzor	597,5	256,5	341,0
8	**Ulug‘bek**	G‘uzor	786,2	786,2	
9	**M.Hasanova**	G‘uzor	669,9	628,9	41,0
10	**Jonbuloq**	G‘uzor	800,6	604,6	196,0
11	**Batosh**	G‘uzor	801,5	801,5	
12	**O.Kuchkinov**	G‘uzor	923,0	483,5	439,5
		Jami	**11958**	**10292**	**1665**

Xalq deputatlari G’uzor tumani
Kengashining
2026-yil 18-maydagi
VII-17-33-4-56-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Suv bilan barqaror ta’minlangan hududda joylashgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari ro‘yxatini shakllantirish to‘g‘risidagi MA’LUMOT

№	Hudud nomi	Tuman nomi	Jami yer maydoni (gektar)	Suv olish usuli, gektar	
				o‘z oqimi bilan	nasoslar orqali
1	Bo‘ston	G‘uzor	1691,1	831,4	859,7
2	Oxunboboyev	G‘uzor	1162,6	238,5	924,2
3	A.Tursunov	G‘uzor	362,8		362,8
4	Navbaxor	G‘uzor	279,8		279,8
5	Navruz	G‘uzor	371,2		371,2
6	Ulug‘bek	G‘uzor	150,8		150,8
7	M.Hasanova	G‘uzor	190,2		190,2
8	Batosh	G‘uzor	107,2		107,2
9	Istiqlol	G‘uzor	1175,5	993,5	182,0
10	T.Zuxro	G‘uzor	2319,9	1395,9	924,0
11	O.Kuchkinov	G‘uzor	115,6	115,6	
12	M.Raxmonov	G‘uzor	1718,2	1300,7	417,5
		Jami	**9645**	**4876**	**4769**